**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar mazmuni, ularni tanlash va tatbiq etish usullari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan ko‘rib chiqilgan. Avvalo, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning lug‘at fondini kengaytirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda mustahkamlashtirishda ta‘limiy mashqlarning ahamiyati asoslab beriladi. Maqolada mazkur mashqlarning lingvistik, psixolingvistik va metodik xususiyatlari tahlil qilinadi, shuningdek, ularni dars jarayoniga izchil joriy etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi. Natijada, o‘quvchilarning so‘z boyligi ortib, ularning matnni tushunish, fikr bildirish va muloqotga kirishish ko‘nikmalari yaxshilanadi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich sinif o‘quvchilari, lug‘at boyligi, mashqlar, nutq madaniyati, metodik yondashuv, lingvistik xususiyatlar, psixolingvistik omillar, o‘quv jarayoni, kommunikativ kompetensiya.

Boshlang‘ich sinif o‘quvchilarining lug‘at boyligini kengaytirish ularning kelgusidagi akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivoji uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Til — o‘quvchilarning nafaqat o‘qish, yozish, tinglab tushunish, balki mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish va jamiyatda faol muloqotga kirishishida asosiy vositadir[1]. Ayniqsa, boshlang‘ich bosqichda o‘quvchilarning til qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning lug‘at doirasini kengaytirish, so‘z boyligini mustahkamlash muhim o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘quvchilarda tilga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, matn mazmunini chuqurroq anglash, mustaqil fikr ifodalash, nutqiy faollik va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni ta‘minlaydi[2].

Zamonaviy ta‘lim jarayonida informatsion texnologiyalarning rivojlanishi, o‘quv adabiyotlari, ommaviy axborot vositalari va internet manbalari orqali o‘quvchilarning til bilan tanishuvi tobora kengayib borayotgan bir paytda boshlang‘ich



sinfda lugʻatni boyitish masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi[3]. Bu oʻquvchilarning asosiy lugʻat fondi, soʻzlarning maʼno oʻziga xosliklarini anglash, ularni toʻgʻri qoʻllash koʻnikmasi, soʻz va iboralardan ongli ravishda foydalanish kabi kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarurdir.

Maqolada oʻquvchilarning lugʻat boyligini oshirishga qaratilgan mashqlarni tanlash, ularni dars jarayoniga joriy etish hamda amaliy tatbiq qilishga doir usuliy tavsiyalar tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlangʻich sinf pedagoglari va metodistlariga oʻquv jarayonida foydalanish mumkin boʻlgan samarali mashq turlarini taklif etish, shuningdek, oʻquvchilarning nutqiy rivojlanish darajasini oshirishga xizmat qiladi[4].

Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining lugʻat boyligini rivojlantirishda lingvistik va psixolingvistik omillar. Bolalarning lugʻat boyligi dastlabki sinflardayoq shakllanib, keyingi bosqichlarda nutq madaniyati, matn bilan ishlash koʻnikmasi, mustaqil fikrlash, ijtimoiy va madaniy muhitga moslashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Lingvistik nuqtai nazardan lugʻat doirasining kengligi soʻzning maʼno chegaralari, uning konnotativ xususiyatlari va kontekstga muvofiq ravishda qoʻllay olish malakasi orqali namoyon boʻladi. Psixolingvistik yondashuv esa oʻquvchilarning soʻz oʻzlashtirish jarayonini xotira, eʼtibor, idrok va hissiy munosabatlar bilan bogʻlaydi[5]. Yaʼni lugʻat boyligi faqat soʻzlarni yodlash emas, balki ularni ongli oʻzlashtirish, qayta ishlash, turli sharoitlarda qoʻllash va tahlil qila olish qobiliyatlarini ham oʻz ichiga oladi.

Metodik yondashuv va mashqlarni tanlash mezonlari. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga olib, lugʻat boyligini kengaytirish boʻyicha mashqlar tanlashda quyidagi metodik mezonlar muhim hisoblanadi:

Didaktik maqsadga muvofiqlik: Mashqlar oʻquvchilarning mavjud bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash, yangi soʻzlarni samarali oʻzlashtirishga xizmat qilishi kerak[6].

Yosh xususiyatlar: Mashqlar oʻquvchilarning psixologik, fiziologik hamda emotsional rivojlanish darajasiga mos boʻlishi lozim. Ularda qiziqish uygʻotish, oʻyin elementlarini kiritish, koʻrgazmali vositalardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Mustahkamlik va izchillik: Mashqlar tanlashda ularning izchil, bosqichma-bosqich takomillashib borishi, oldin oʻzlashtirilgan lugʻat birligining keyingi mashqlarda mustahkamlab borilishi, asta-sekin murakkablashuvi eʼtibordan chetda qolmasligi lozim[7].





Turli faoliyat turlari bilan integratsiya: Mashqlarni yaratishda o‘qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish kabi nutq faoliyati turlarini uyg‘unlashtirish, mazkur jarayonni rasmlar, audio va video materiallar bilan boyitish o‘quvchilarda til materialini ongli va barqaror o‘zlashtirishga yordam beradi[8].

Mashq turlari va ularning xususiyatlari. Lug‘at boyligini oshirish bo‘yicha mashqlarni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin:

So‘z o‘rgatish va faollashtirish mashqlari: Yangi so‘zlarni tanishtirishda ular ma’no, talaffuz va yozuv nuqtai nazaridan tushuntiriladi. Misol uchun, rasmlar orqali namoyish qilish, syujetli rasmlarda buyumlar va harakatlarni nomlash, so‘zlar bilan oddiy gaplar tuzish[9].

Semantik ishlov berish mashqlari: O‘quvchilar yangi o‘rganilgan so‘zlarni turli kontekstlarda qo‘llash, sinonim, antonim, ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlash orqali ularning semantik maydonini kengaytiradilar. Masalan, berilgan so‘zga mos keladigan sinonim topish, antonimini aniqlash, so‘zga qarab rasmlarni tanlash yoki hikoya tuzish.

Leksik-grammatik mashqlar: Bu turdagi mashqlar so‘zlar bilan birgalikda ularning grammatik shakllarini ham mustahkamlashga qaratiladi. So‘z turkumlarini aniqlash, ularni gap bo‘laklari sifatida to‘g‘ri qo‘llash, so‘z formasini o‘zgartirish (son, kelishik, zamon) kabilar unga misoldir[10].

Interaktiv va o‘yin shaklidagi mashqlar: O‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, ularni faollashtirish uchun rolli o‘yinlar, savol-javoblar, mini-sahnalashtirishlar, “so‘z topish” o‘yinlari, viktorina va tanlovlar qo‘llanilishi mumkin. Bu uslubiy harakatlar lug‘at birikmalarining tabiiy nutq jarayonida yoki ijodiy izlanishlarda foydalanilishini kuchaytiradi.

Mashqlarni ta’lim jarayoniga joriy etish strategiyalari. Mashqlarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchi avvalo sinfdagi o‘quvchilarning til bilish darajasini, yosh xususiyatlarini, psixologik holatini chuqur o‘rganishi zarur. Shundan so‘ng o‘quv reja va dasturga mos ravishda mashqlarni tanlash, ularning ketma-ketligini aniqlash va dars jarayoniga izchil singdirish muhimdir. Shuningdek, mashqlarni o‘quvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqib diferentsiatsiya qilish, qiyinchilik darajasini moslashtirish yaxshi natija beradi. O‘quvchilarning erishgan yutuqlari va qiyinchiliklari muntazam ravishda tahlil qilinib, mashq turlariga o‘zgartirishlar, takomillashtirishlar kiritilishi zarur.

Kutilayotgan natijalar va o‘lchov mezonlari. Lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar izchil qo‘llanganda quyidagi natijalarga erishish mumkin:





O'quvchilarning passiv lug'ati faol lug'atga aylanadi, ularda so'zlarni erkin tanlash, to'g'ri qo'llash ko'nikmasi shakllanadi.

O'quvchilar matn mazmunini chuqurroq tushunishga, so'zlararo bog'liqlikni his qilishga, yuqori darajadagi tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qodir bo'ladilar.

Kommunikativ kompetensiya oshadi, o'quvchilar o'z fikrini aniq, izchil va mantiqiy ifodalash, nutqiy vazifalarni samarali bajara olish qobiliyatiga ega bo'lishadi.

Shu tarzda o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga qaratilgan mashqlar amaliyotga joriy etilganda, boshlang'ich ta'lim bosqichidanoq nutqiy kompetensiya, ijodkorlik va mustaqil fikrlash salohiyati yuksaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'at boyligini oshirish, ularda ko'p qirrali nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, mustahkam bilim zaxirasini shakllantirish hamda ongli so'z qo'llash madaniyatini barpo etish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim talablaridan biridir. Tadqiqotda ko'rsatib o'tilgan metodik yondashuvlar, mashqlar mazmuni, tanlash mezonlari, ularni dars jarayoniga joriy etish strategiyalari va natijalarni o'lchash mezonlari o'qituvchilarga ushbu jarayonni samarali tashkil qilishda amaliy yordam beradi.

Lug'at boyligini oshirish mashqlari o'quvchilarda so'z ma'nolarini chuqur anglash, ularni turli sharoitda qo'llash, ijodiy vazifalarni bajarish, o'qish va yozish ko'nikmalarini mustahkamlash, keng dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, boshlang'ich bosqichdan boshlab puxta lug'aviy poydevorni yaratish nafaqat keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishga, balki jamiyatda faol, bilimdon, muloqotga kirisha oladigan shaxsni voyaga yetkazishga ham zamin hozirlaydi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Boshlang'ich Sinf Ona Tili Va OQish Savodxonligi O'rgatish Usullari. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 164-168.

2. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2024). Types of Exercises Used in Mother Language Lessons of Class 1-4. Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences, 3(1), 42-45.

3. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2024). ONA TILI DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN TA'LIM METODLARI TASNIFI. XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 141-144.





4. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). 1-3-Sinf O 'Quvchilariga Ona Tili Va O 'Qish Savodxonligi Fanidan Beriladigan Mashqlar Turlari. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 161-163.

5. Javohir G'aybullo o'g, Z. (2023). Ona Tili Va OQish Savodxonligi Darolarida QoLlaniladigan Metodlarning Tasnifi. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 180-184.

6. ZOKIROV, J. (2022). BOSHLANG 'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARIDA MASHQLARNING XUSUSIYATLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 2(2).

7. Zokirov, J. (2023). SIFATLI TA'LIM BERISHDA ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGINING ROLI. Interpretation and researches, 2(1).

8. Зокиров, Д. (2022). Ona tili va o 'qish sav odxonligi darolarida matn ustida ishlash yo 'llari. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(2), 288-291.

9. Zokirov, J. G. O. (2023). ZAMONAVIY ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINING YANGILANISHI, MAZMUNI VA AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, 5(NUU conference 3), 90-96.

10. O'g'li, Z. J. G. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA KLASSTER METODLARIDAN FOYDALANISH. Science and innovation, 2(Special Issue 4), 76-79.

**Research Science and  
Innovation House**





## Turizmga oid til birliklarining Ingliz va O‘zbek tillaridagi qiyosiy tahlili: lingvistik va madaniy o‘ziga xosliklar

**Maxmudova Nozimaxon Zoxidjon qizi**

Andijon davlat chet tillari instituti Ingliz filologiyasi, o‘qitish meto‘dikasi va tarjimashunoslik fakulteti 202-guruh talabasi

### **Annotatsiya**

Mazkur maqola Ingliz va O‘zbek tillarida turizmga oid til birliklarini qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda lingvistik va madaniy xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganilib, terminologiya, frazeologiya va so‘zlashuv uslublarining madaniyatga ta’siri tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotning natijalari turizm tilining xalqaro muloqotda qanday rivojlanishi mumkinligini ko‘rsatadi va O‘zbek tilida ushbu sohaning terminologiyasini boyitish uchun takliflar beradi.

**Kalit so‘zlar:** turizm tilshunosligi, qiyosiy tahlil, lingvistik o‘ziga xoslik, madaniyat va til, terminologiya.

Bugungi global davrda turizm iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. Xalqaro aloqalar va ko‘p millatli sayohatlar davomida til muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ingliz tili turizmga asosiy muloqot tili sifatida qabul qilingan bo‘lsa, O‘zbek tili mahalliy turizmni rivojlantirishda milliy madaniyat va an‘analarni aks ettiradi. Ushbu maqolada turizmga oid Ingliz va O‘zbek tillaridagi lingvistik birliklar, ularning qiyosiy jihatlari va madaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqola nafaqat lingvistik tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi, balki turizm tilining global rivojlanishiga ko‘maklashadigan amaliy takliflarni ham taqdim etadi. Keling dastlab mavzuga kirishdan oldin lingvistik xususiyatlar haqida ma’lumotlarni ko‘rib chiqamiz. Lingvistik xususiyatlar deganda biz tilshunoslik, ya’ni lingvistika fanida tilning tuzilishi va funksiyalariga doir belgilovchi xususiyatlar majmuyini tushunamiz. Bu xususiyatlar tilning har bir aspektini, jumladan, fonetik, morfologik, sintaktik, leksik va semantik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Har bir tilning o‘ziga xos lingvistik xususiyatlari mavjud: **Fonetik xususiyatlar** — tilning tovush tizimi, ya’ni tovushlar qanday paydo bo‘lishi va qanday o‘zgartirilishi (masalan, vokallar va konsonantlar). **Morfologik xususiyatlar** — so‘zlarning tuzilishi, ularda qaysi qo‘shimchalar ishlatilishi, grammatik shakllarning o‘zgarishi (masalan, son, shaxs, vaqt va hol). **Sintaktik**



**xususiyatlar** — gaplar va jumlar tuzilishi, soʻzlar va frazalar qanday tartibda joylashishi, ularning oʻzaro bogʻlanish qonuniyatlari. **Leksik xususiyatlar** — soʻzlar va ularning maʼnolari, tilning leksik boyligi va soʻzlashuvdagi ayni zamondagi va tarixiy oʻzgarishlar. **Semantik xususiyatlar** — soʻzlarning maʼno tizimi, maʼno shakllanishi va ularda semantik oʻzgarishlar[7,8]

**Yuqorida bir qancha lingvistik xususiyatlar sanab oʻtilib, ularga doir tarif ham berib oʻtildi. Bilamizki turizm sohasida ham ushbu xususiyatlar alohida etiborga molikdir. Bu sohada nafaqat turizmga oid tilning lingvistik oʻziga xosliklari balki ularga bogʻliq holda madaniy xususiyatlar ham oʻrganiladi.**

### 1. Turizm tilining lingvistik xususiyatlari

1.1. Ingliz tilidagi lingvistik xususiyatlar: Ingliz tili xalqaro muloqotning asosiy vositasi boʻlib, turizm tilining global rivojlanishida yetakchi oʻrinni egallaydi. Uning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: Qisqalik va aniq ifoda: Ingliz tilidagi terminologiya qisqa va aniq ifodalar orqali maʼlumotni yetkazadi. Masalan: "Itinerary" — sayohat marshruti, barcha bosqichlarni oʻz ichiga oladi [1]. "Layover" — reyslar oʻrtasidagi vaqtinchalik toʻxtash.

Texnologiyaga moslashuvchanlik: Ingliz tilida yangi texnologiyalar bilan bogʻliq terminologiya tez qabul qilinadi. Masalan: "E-ticket" (elektron chipta). "Check-in kiosk" (oʻz-oʻziga xizmat terminali) [2].

Global madaniyatga moslik: Ingliz tilida koʻplab soʻzlar xalqaro sayohatchilar tomonidan osongina tushuniladi. Misol uchun, "All-inclusive" (hamma xizmatlarni oʻz ichiga olgan) yoki "Budget-friendly" (byudjetga mos).

### 1.2. Oʻzbek tilidagi lingvistik xususiyatlar

Oʻzbek tili turizm sohasida milliy madaniyat va anʼanalarni aks ettiradi. Shu bilan birga, soha terminologiyasini rivojlantirish jarayonida xalqaro taʼsir seziladi.

Oʻzlashgan terminlar: Ingliz tilidan oʻzlashgan atamalar Oʻzbek tilida keng qoʻllaniladi: "Bron qilish" — booking soʻzining moslashuvi [4]. "Registratsiya" — roʻyxatdan oʻtish jarayoni.

Milliy madaniyatga asoslangan birliklar: Oʻzbek tilida turizm sohasiga oid terminlar milliy oʻziga xoslikni aks ettiradi: "Mehmonxona" (mehmonlarni qabul qilish joyi), "Sayohat qoidalari" (travel rules) kabi iboralar Oʻzbekistonning madaniyati va tarixiga mos keladi [5].

### 2. Frazologik birliklar va madaniy kontekst

#### 2.1. Ingliz tilidagi frazeologik birliklar



Frazeologik birliklar sayohat va turizm sohasida keng qo'llaniladi. Ingliz tilida bunday iboralar amaliy va qulay ma'noga ega: "Travel light" — yengil sayohat qilish, ortiqcha bagajsiz harakat qilish. "Off the beaten path" — kam tanilgan joylarga sayohat qilish. Bu iboralar sayohatchilarning ehtiyojlariga moslashgan va xalqaro darajada mashhur [3].

## 2.2. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar

O'zbek tilida frazeologik birliklar ko'pincha milliy qadriyatlar va an'analarni aks ettiradi: "Mehmon kelsa, rizq keladi" — mehmondo'stlik madaniyatini ifodalaydi.

"Ko'p yurgan biladi" — sayohat tajribaning manbai ekanini anglatadi [5]. Bu birliklar O'zbekistonning mehmondo'stlik an'analari va sayohatga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi.

## 3. Terminologiyaning qiyosiy tahlili

### 3.1. Ingliz tili terminlari

Ingliz tilida terminologiya qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi: "All-inclusive" — xizmatlarning barcha turlarini o'z ichiga oladi. "Sightseeing" — diqqatga sazovor joylarni ko'rish.

### 3.2. O'zbek tili terminlari

O'zbek tilida bunday tushunchalar kengaytirilgan holda ifodalanadi: "Hamma xizmatlar ichiga kiradi" (all-inclusive). "Diqqatga sazovor joylarni tomosha qilish" (sightseeing) [4]. Bu farqlar O'zbek tilining tasviriy va boy lug'atiga mos keladi.

## 4. Madaniyat va tilning o'zaro bog'liqligi

Til va madaniyatning o'zaro aloqasi . Til ham madaniyat, ham tabiat hodisasi sifatida mavjud[8]. Shubhasiz, til madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tarixidagi eng muhim yutuqlardan biri sanaladi[9]. Dunyoning barcha tillarida unli va undoshlar hamda ko'plab tovushlar almashinuvi zanjirining mavjudligi madaniyat bilan emas, tabiat bilan bog'liqdir[10]. Madaniyat esa tilning mazmun jihatini aniqlaydigan vosita hisoblanadi va har ikkisi bir biriga chambarchas bog'liqdir.. Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi turizm tilining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ingliz tilida xalqaro standartlar asosida bir xil terminologiya qo'llanilsa, O'zbek tilida mahalliy madaniyatga moslashish kuzatiladi. Misollar: Ingliz tilida: "Customer is always right" (mijoz doimo haq). O'zbek tilida: "Mehmon ulug', mezbon hurmatda" (mehmondo'stlik qadriyatlarini ifodalaydi)[5].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Ingliz va O'zbek tillaridagi turizm terminologiyasi madaniy va lingvistik jihatdan sezilarli farqlarga ega. Ingliz tili xalqaro



muloqot tili sifatida qisqalik va aniqlikka asoslanadi, O‘zbek tili esa milliy qadriyatlar va boy tasviriylik bilan ajralib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Crystal, D. (2010). English as a Global Language. Oxford University Press.
2. Jenkins, J. (2007). Global Englishes and Language Change. Routledge.
3. Smith, M. K. (2015). Tourism and Cultural Interactions. Cambridge University Press.
4. Rahmatov, F. (2020). O‘zbek tilida terminologiya yaratish tamoyillari. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Mirzaev, M. (2018). Turizm va madaniyat: qiyosiy tadqiqotlar. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
6. **Ferdinand de Saussure** – "*Kurs umumiy lingvistika*" (**Course in General Linguistics**): 2-3-5-bo‘limlar.
7. Noam Chomsky – "*Syntactic Structures*" (1957): Sintaktik xususiyatlar: Chomskyning "*Syntactic Structures*" asarida sintaksis, ya'ni gaplar tuzilishi haqida asosiy tushunchalar *Ch. 1* va *Ch. 2* bo‘limlari.

### Foydalanilgan saytlar:

8. [https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol\\_2\\_No\\_4/888-892.pdf](https://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_4/888-892.pdf)
9. <https://cyberleninka.ru/article/n/olam-milliy-lisoniy-manzarasi-tasvirida-til-va-madaniyat-mushtarakligi>
10. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/til-va-madaniyatning-o-zaro-aloqasi>

Research Science and  
Innovation House





**O‘zbek va nemis tillarida qo‘rquv konseptini ifodalovchi lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi**

Ilmiy rahbar, **Sapayeva Rayhon Bobojonovna**  
**Qadamova Ko‘xinur Anvar qizi**

UrDU lingvistika (nemis tili) 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbek va nemis tillarida qo‘rquv konseptini ifodalovchi lisoniy birliklarning qiyosiy tahlili bilan qisqacha tanishib chiqamiz. Qo‘rquv hissi psixologik va madaniy fenomen sifatida o‘rganilib, ushbu hissiyotning O‘zbek va nemis tillaridagi lingvistik ifodalari o‘rtasidagi umumiylik va farqlar aniqlangan. Tadqiqot davomida qo‘rquvni ifodalovchi so‘zlar, frazeologik birliklar va metaforik tasvirlar tahlil qilingan. Nemis tilida qo‘rquv hissi batafsil tasniflanib, individual xavfsizlik va hissiyotga ko‘proq urg‘u beriladi. O‘zbek tilida esa qo‘rquv metaforik obrazlar va jismoniy reaksiyalar orqali ifodalanadi. Mazkur maqola madaniyatlararo lingvistika va hissiyotlarni lingvistik ifodalash bo‘yicha ilmiy izlanishlarga asos yaratadi.

**Kalit so‘zlar:** Qo‘rquv konsepti, konsept tushunchasi, lingvistik birliklar, frazeologik iboralar, metaforalar, madaniyatlararo qiyoslash, hissiyotlarning lingvistik ifodasi.

**Kirish:** Qo‘rquv - inson hayoti davomida eng muhim va doimiy hissiyotlardan biri. U xavf, noma’lumlik yoki noqulaylik holatida namoyon bo‘ladi. Ushbu hissiyot ko‘pgina tillarda lingvistik va madaniy jihatdan o‘ziga xos tarzda ifodalanadi. Tilshunoslikda konsept sifatida o‘rganilgan qo‘rquv hissi inson dunyoqarashi, madaniyati va til tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu maqola O‘zbek va nemis tillarida qo‘rquv konseptini ifodalovchi so‘z, ibora va metaforalarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

**1. Qo‘rquv konseptining nazariy asoslari**

**1.1. Konsept tushunchasi:** Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri bu konseptdir. Bu atama XX asrning 90-yillariga kelib qollanila boshladi.





Konsept sozi aslida lotincha soz bolib, tushuncha manosini ifodalaydi. Hozirda konsept terminidan tushuncha sozining sinonimi sifatida foydalanilmoqda.

Konsept termini matematik mantiq, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qollanilmoqda. Y.S.Kubryakova takidlaganidek, konsept termini tafakkur, anglash, malumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shugullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini o'taydi. Konseptlar xalqning ongida jamoa merosi sifatida, uning manaviy mulki, madaniyati sifatida namoyon boladi. Aynan jamoaning tafakkuri konseptning boqiyiligini taminlovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Konsept lingvistik kategoriya sifatida tushuncha kategoriyasini til tizimida namoyon etuvchisidir. I.I.Meshchaninov tushuncha kategoriyasiga (понятийное категории) oydinlik kiritadi. Uning fikricha, tilda ifodalanayotgan har qanday narsani tushuncha kategoriyasi deb bo'lmaydi.

Tushuncha kategoriyasi tilning turli sathlarida, turli vositalar orqali ifodalanish imkoniyatiga ega. Konsept til vositalari, leksik-semantik paradigmalar orqali namoyon boladi, yani konseptning umumiy mazmunini bir markazga birlashgan semantik maydon hosil qiluvchi leksik birliklar tashkil etadi. Bu maydonga kiruvchi leksik birliklar manosiga kora bir-biri bilan uzviy aloqada boladi. Konsept tushunchasi ozida mantiqshunoslik, psixologiya, tilshunoslik va bilish nazariyasi fanlarining ozaro bogliqligi, hamkorligini aks ettiradi. Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, mano va obraz yotadi. Xullas, mentalingvistikaning mantiqiy, psixik (ruhiy), semiotik (belgili), kontensiv (tushunchaviy) yonalishlari antropotsentrik tilshunoslikning vujudga kelishiga sabab boldi.

Konsept - bu inson ongi va tili orqali madaniyat va dunyoqarashni aks ettiruvchi asosiy bilim birligi. Tilshunoslikda konseptlarni o'rganish xalqning madaniyati, hayot tarzi va hissiy dunyosini tahlil qilishga imkon beradi. Qo'rquv konsepti esa universal hissiyot bo'lib, har bir xalq tilida o'ziga xos jihatlarda namoyon bo'ladi.

## 1.2. Qo'rquvning psixologik va madaniy aspektlari

Qo'rquv insonning o'zini himoya qilish instinkti bilan bog'liq. Psixologlar uni xavf va noma'lumlikka javob sifatida ta'riflaydilar. Turli xalqlar madaniyatida qo'rquvga bo'lgan munosabat ham farqlanadi: sharq xalqlarida ijtimoiy qo'rquv



(masalan, obro‘ni yo‘qotish) ko‘proq uchrasa, g‘arb madaniyatida individual xavfsizlik muhim o‘rin egallaydi.

## 2. O‘zbek tilida qo‘rquvni ifodalovchi lisoniy birliklar

O‘zbek tilida qo‘rquv hissi quyidagi asosiy vositalar orqali ifodalanadi:

**2.1. Leksemalar orqali ifoda:**Qo‘rqmoq, cho‘chimoq, seskanmoq, vahima, dahshat,hadiksirash,qo‘rqmas,qo‘rquvli,qo‘rqinqiramoq,qo‘rqitmoq, xavotir bo‘lmoq kabi so‘zlar qo‘rquv hissini bildiradi. Bu so‘zlar intensivlik va hissiy ko‘lam jihatidan farqlanadi:

“Qo‘rqmoq” - umumiy qo‘rquvni ifodalaydi.

“Cho‘chimoq” - qisqa muddatli yoki kutilmagan qo‘rquvni bildiradi.

**2.2. Frazelogik birliklar:** Frazelogik birliklar O‘zbek tilida hissiyotni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi:

“Yuragi yorilib ketay dedi, yuragi qinidan chiqmoq, uchib tushmoq”, – qo‘rquvning yuqori darajasi.

“Qo‘rqib qoldi, kapalagi uchmoq, yuraksizlik qilmoq, yuragi betlamay, dov bermay ketmoq, quyonyurak bo‘lmoq” – oddiy darajadagi qo‘rquv.

**2.3. Metaforik tasvirlar:** Qo‘rquv O‘zbek tilida ko‘pincha insonning jismoniy holati orqali ifodalanadi:

“Rangi oqarib ketdi.”

“Tizzasi qaltiradi.”

## 3. Nemis tilida qo‘rquvni ifodalovchi lisoniy birliklar:

Nemis tilida qo‘rquvni ifodalovchi lingvistik birliklar quyidagilardan iborat:

**3.1. Leksemalar orqali ifoda:**Nemis tilida qo‘rquvga oid asosiy so‘zlar:

Angst – umumiy qo‘rquv.

Furcht – xavf yoki tahdid bilan bog‘liq qo‘rquv.

Panik – kuchli va keskin qo‘rquv holati.

**3.2. Frazelogik birliklar:**“Angst haben” – qo‘rqmoq.

“Das Herz rutscht in die Hose” – "Yuragi joyidan chiqib ketdi".

“Die Knie schlottern” – "Tizzalari qaltiradi".



**3.3. Metaforalar va tasviriy iboralar:**Nemis tilida qoʻrquv koʻpincha kuchli dramatik tasvirlar orqali ifodalanadi:

“Mir läuft es kalt den Rücken herunter” – "Mening belimdan sovuq yugurib oʻtdi".  
“Er wurde blass vor Angst” – "Qoʻrquvdan oqarib ketdi".

Nemis madaniyatida qoʻrquvga oid iboralar koʻpincha individual his-tuygʻularni aks ettiradi va keng kontekstda ishlatiladi.

#### **4. Qoʻrquv konseptining qiyosiy tahlili**

**4.1. Semantik tahlil:**Oʻzbek tilida qoʻrquvga oid soʻzlar koʻproq kishi his-tuygʻularini ifodalasa, nemis tilida soʻzlar orasidagi semantik farqlanish aniqroq.

Masalan, Angst va Furcht bir-biridan vaziyatga qarab farqlanadi, Oʻzbek tilida esa "qoʻrqmoq" yoki "choʻchimoq" kengroq qoʻllanadi.

**4.2. Frazologik birliklar qiyosi:**Oʻzbek tilida: “Yuragi qaltiradi,yuragi qinidan chiqay dedi kabi iboralar fiziologik tasvirlarga asoslangan.

Nemis tilida: “Das Herz rutscht in die Hose” kabi iboralar hissiyotning obrazli tasvirini beradi.Oʻzbek madaniyatida qoʻrquv ijtimoiy munosabatlar va masʼuliyat bilan bogʻliq.

Nemis madaniyatida esa individual xavfsizlik va shaxsiy his-tuygʻular ustuvor ahamiyatga ega.

**Xulosa:** Qoʻrquv konsepti Oʻzbek va nemis tillarida turli xil lingvistik va madaniy vositalar bilan ifodalanadi. Har ikki tilda qoʻrquv hissiyoti boy metaforik va frazeologik birliklar orqali tasvirlanadi. Ammo nemis tilida qoʻrquvning semantik darajada batafsil tasniflanishi va lingvistik aniqligi yaqqol namoyon boʻladi. Ushbu qiyosiy tadqiqot lingvistik va madaniy jihatlarni chuqurroq oʻrganishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Mamatonov,A " Zamonaviy lingvistika". Toshkent
- 2.Apresyan, Y. D. (1995). Leksicheskiye znacheniya i kontsepty. Moskva.
- 3.Fillmore, C. J. (1982). Frame Semantics. Linguistics Society of America.
4. Usmonov, O. (2015). Oʻzbek tilining frazeologiyasi. Toshkent.
- 5.Duden. (2024). Deutsche Sprache und Synonymik. Berlin.
6. Langacker, R. W. (1987). Foundations of Cognitive Grammar. Stanford University Press.
- 7." Oʻzbek tilining izohli lugʻati" (2022)





**Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlarini**

**Quranboyeva Ruxsora Muzaffar qizi**  
**UrDU 241-psixologiya**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o'ziga xos jihatlarini tahlil qilinadi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik omillar, ularning ijtimoiy va individual hayotdagi ahamiyati o'rganiladi. Shuningdek, muloqotda samarali va muvaffaqiyatli aloqalarni o'rnatish uchun zarur bo'lgan psixologik elementlar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Shaxslararo muloqot, psixologik xususiyatlar, ijtimoiy aloqalar, muloqotning samaradorligi, psixologik omillar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются основные психологические особенности и уникальные черты межличностного общения. Рассматриваются психологические факторы, возникающие в процессе общения, а также их значимость в социальной и индивидуальной жизни. Особое внимание уделяется необходимым психологическим элементам для установления успешных и эффективных коммуникаций.

**Ключевые слова:** Межличностное общение, психологические особенности, социальные связи, эффективность общения, психологические факторы.

**Annotation:** This article analyzes the main psychological characteristics and distinctive features of interpersonal communication. The psychological factors that arise during the communication process and their significance in social and individual life are explored. Furthermore, the necessary psychological elements for establishing effective and successful communication are discussed.

**Keywords:** Interpersonal communication, psychological characteristics, social interactions, communication effectiveness, psychological factors.

**Kirish:** Shaxslararo muloqot – insonlarning bir-birlari bilan o‘zaro aloqa qilish, o‘z fikrlarini va his-tuyg‘ularini ifoda etish jarayonidir. Muloqot nafaqat so‘zlar, balki jismoniy til, yuz ifodalari, tana harakatlari va hatto jimlik orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir insonning ijtimoiy hayotidagi eng muhim faoliyatlaridan biridir, chunki





shaxslararo muloqot orqali biz o‘zaro tushunish, hissiyotlar almashish va ijtimoiy bog‘lanishlarni o‘rnatamiz.

Muloqotning psixologik jihatlari uning mazmuni va samaradorligini shakllantiradi. Har bir insonning ichki dunyosi, psixologik holati, shaxsiy xususiyatlari muloqotning shaklini va mazmunini belgilaydi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlar va omillar shaxslararo munosabatlarga ta‘sir qiladi va ko‘pincha insonlar o‘rtasidagi aloqaning samaradorligini kamaytiradi. Shaxslararo muloqotning o‘ziga xos jihatlari va psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, kommunikativ muammolarni hal qilishda va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada shaxslararo muloqotning psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, muloqotda yuzaga keladigan psixologik omillar, samarali aloqalarni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan elementlar va insonlarning muloqotdagi psixologik holatlari haqida so‘z yuritiladi.

**Asosiy qism:** Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy va emotsional aloqalar, shuningdek, muloqot jarayonining samaradorligini shakllantiradigan turli psixologik omillarni o‘z ichiga oladi. Muloqotda yuzaga keladigan har bir holat yoki vaziyat insonning psixologik holatiga, ehtiyojlariga va xususiyatlariga ta‘sir ko‘rsatadi. Quyida shaxslararo muloqotning psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari haqida batafsil ma‘lumot beriladi.

### **Muloqotdagi psixologik omillar**

Muloqot jarayonida bir nechta psixologik omillar qatnashadi, ularning har biri shaxslararo aloqalarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz bo‘lishiga ta‘sir qiladi:

- **Emotsional holat:** Muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarning emotsional holati katta rol o‘ynaydi. Agar biror kishi g‘azablangan yoki xavotirda bo‘lsa, uning muloqotdagi samaradorligi pasayadi, chunki emotsiyalar, tushunish va izohlashda xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, muloqotda ishtirok etuvchilar bir-birining ruhiy holatini tushunish va unga moslashishlari kerak.

- **Qaror qabul qilish va psixologik blokirovka:** Shaxslararo muloqotda ko‘pincha qaror qabul qilish jarayonlari va psixologik blokirovka (masalan, o‘z fikrini bildirishdan qo‘rquv yoki noxush tajribalar) mavjud bo‘ladi. Bu holatlar, muloqotning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shaxslararo munosabatlarda





muloqotni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun har ikki tomon ham o'zini erkin va ishonchli his qilishlari zarur.

### **Muloqotning turli shakllari va usullari**

Shaxslararo muloqot nafaqat so'zlar orqali amalga oshiriladi, balki tana tili, yuz ifodalari va ovoz balandligi ham alohida rol o'ynaydi. Shuningdek, muloqotning o'zi shaxslar o'rtasida farqli usullarda bo'lishi mumkin:

- **Verbal (so'zli) muloqot:** Bu turdagi muloqotda so'zlar va iboralar asosiy vosita hisoblanadi. So'zlar orqali bir-birimizni tushunish, ma'lumotlar almashish va hissiyotlar ifoda etiladi. Shaxsning so'zlash uslubi, u qanday nutq qurishi, kim bilan qanday muloqot qilishi psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega.

- **Non-verbal (so'zsiz) muloqot:** Tana tili, yuz ifodalari, qo'l harakatlari va umumiy jismoniy holat muloqotning muhim qismini tashkil etadi. Bu shakl ko'pincha so'zlarni to'ldiradi yoki ularning ta'sirini kuchaytiradi. Masalan, quvonch yoki g'azabni ifodalovchi yuz ifodalarining kuchli ta'siri, so'zlardan ham samaraliroq bo'lishi mumkin.

### **Empatiya va muloqot**

Empatiya, ya'ni boshqalar his-tuyg'ularini tushunish va ularga nisbatan samimiy munosabatda bo'lish, shaxslararo muloqotning muhim jihatlaridan biridir. Empatiya muloqotda aloqani chuqurlashtiradi, ijobiy his-tuyg'ularni rivojlantiradi va ikki tomon o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Boshqalar bilan empatik aloqada bo'lish, suhbatdoshni tinglash va uning hissiyotlarini tushunishga harakat qilish muloqotning samaradorligini oshiradi.

### **Muloqotdagi to'siqlar va ularni yengish**

Shaxslararo muloqotda ba'zan turli psixologik to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. Bunga quyidagilar kiradi:

- **Maqsadni noto'g'ri tushunish:** Muloqotda maqsadning noaniqligi yoki noto'g'ri tushunilishi aloqaning samaradorligini pasaytiradi. Suhbatdoshlar o'zaro tushunmovchiliklarga yo'l qo'yishlari mumkin, bu esa muloqotning samarali bo'lishiga to'siq qiladi.

- **Kommunikativ noqulayliklar:** Shaxslar o'rtasidagi farqlar, shaxsiy xususiyatlar, madaniy, diniy yoki ijtimoiy tafovutlar muloqotda to'siq bo'lishi mumkin. Bunday holatlar o'zaro muloqotda stress va noqulaylikni keltirib chiqaradi.





Muloqotda bu to‘siqlarni yengish uchun, odamlar bir-birini yaxshiroq tushunishga va muammolarni hal qilishga intilishlari kerak. Yaxshi muloqotning asosiy kaliti – o‘zaro hurmat, ochiq va samimiy aloqalar, bir-birini tushunishga harakat qilishdir.

### **Shaxslararo muloqotning ijtimoiy ahamiyati**

Shaxslararo muloqot, nafaqat individual darajada, balki ijtimoiy hayotda ham katta ahamiyatga ega. Jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va odamlar o‘rtasida uyg‘unlikni ta‘minlashda muloqotning psixologik jihatlari muhim rol o‘ynaydi. Muloqot orqali odamlar bir-birlariga yordam beradi, muammolarni hal qiladi va ijtimoiy bog‘lanishlarni mustahkamlaydi. Shaxslararo muloqotning psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari insonlar o‘rtasidagi aloqalarni shakllantiradi va samarali muloqot o‘rnatishda muhim omillarni tashkil etadi. Har bir odamning psixologik holati, emotsional tasavvurlari, shaxsiy xususiyatlari va kommunikativ uslubi muloqotning natijasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Muloqotda yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni yengish va empatiya orqali muvaffaqiyatli aloqalarni o‘rnatish ijtimoiy hayotning muhim qismini tashkil etadi.

### **Mavzuning dolzarbligi**

Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari bugungi kunda juda muhim ahamiyatga ega. Muloqot, nafaqat odamlarning bir-biri bilan tushunish, ma‘lumot almashish va hissiyotlarni ifoda etish vositasi sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarning asosiy poydevori sifatida ham qaraladi. Ijtimoiy rivojlanish, jamiyatdagi barqarorlik va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, ko‘proq samarali va muammosiz muloqotga bog‘liq.

Zamonaviy hayotda shaxslararo muloqotda turli xil psixologik to‘siqlar, qarama-qarshiliklar, ehtiyojlar va emotsiyalar bir-birini kesib o‘tadi. Ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi va shaxslararo aloqa usullarining o‘zgarishi muloqotning yangi formatlarini yaratdi. Bu esa, o‘z navbatida, muloqotning psixologik jihatlari chuqurroq tushunish va amaliyotga tadbiiq etish zaruratini tug‘diradi.

Muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik omillar va to‘siqlarni o‘rganish, odamlar o‘rtasida muvaffaqiyatli aloqalarni o‘rnatishda yordam berishi mumkin. Muloqotning ijtimoiy va psixologik jihatlari haqida bilimlarni chuqurlashtirish, ayniqsa, karyera, oilaviy hayot, ta‘lim tizimi va jamoatdagi munosabatlarda juda muhimdir. Shu sababli, shaxslararo muloqotning psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari mavzusi hozirgi vaqtda dolzarb bo‘lib, psixologiya, pedagogika, ijtimoiy fanlar va boshqa sohalarda keng qo‘llanilmoqda.





**Muhokama:** Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari muhokama qilish, insonlar o'rtasidagi aloqalarni yanada samarali qilish va kommunikatsiya jarayonlaridagi muammolarni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Muloqot faqatgina ma'lumot almashish emas, balki hissiyotlar, fikrlar va qiymatlarni ham bir-biriga yetkazish jarayonidir. Muloqotda yuzaga keladigan psixologik omillar, to'siqlar, hissiy va kognitiv jarayonlar aloqaning qanday shakllanishini belgilaydi.

### **1. Emotsional holatning ta'siri**

Muloqot jarayonida emotsional holatlarning muhim rol o'ynashi muhokamaga arziydi. Insonning kayfiyati, ruhiy holati va hissiyotlari uning so'zlash tarzini, so'zlarini tanlashni, hatto non-verbal (so'zsiz) ifodalarini ham shakllantiradi. Masalan, agar biror kishi g'azablangan yoki xavotirda bo'lsa, u muloqotda noaniqlik va to'siqlar yaratishi mumkin. Bu, o'z navbatida, aloqaning samaradorligini pasaytiradi. Boshqa tomondan, ijobiy kayfiyatda bo'lgan insonlar o'z fikrlarini ochiq va samimiy tarzda ifoda etadilar, bu esa o'zaro tushunishni yaxshilaydi.

### **2. Empatiya va psixologik tushunish**

Empatiya, ya'ni boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga mos ravishda javob berish, samarali muloqotning ajralmas qismidir. Empatik muloqot shaxslar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlashga yordam beradi. Biroq, hamma insonlar empatiyani bir xil darajada namoyon etmaydi. Ba'zi odamlar boshqalar bilan chuqurroq hissiy aloqada bo'lishga qodir bo'lsa, boshqalari uchun bu qiyin bo'lishi mumkin. Empatiya nuqtai nazaridan, o'zaro tushunishga harakat qilish, biror kishining ichki holatini anglash muloqotni yanada samarali qiladi.

### **3. Shaxsiy xususiyatlar va muloqot uslubi**

Har bir insonning shaxsiy xususiyatlari, masalan, introversiya yoki extroversiya, kommunikatsiya uslubiga bevosita ta'sir qiladi. Introvertlar, odatda, muloqotda noaniq va kamroq ishtirok etadilar, bu ularning boshqalar bilan aloqalarida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Aksincha, ekstrovertlar o'z fikrlarini ochiq va ko'proq ifodalashadi, bu esa ijtimoiy aloqalarni yaxshilaydi, lekin ba'zan ularning boshqalarni tinglashga vaqt ajratmasliklari mumkin. Shaxsiy xususiyatlar muloqot jarayonida qanday muloqot usulini tanlashni belgilaydi, va bu, albatta, aloqaning samaradorligiga ta'sir qiladi.

### **4. Muloqotdagi to'siqlar**

Shaxslararo muloqotda turli psixologik to'siqlar yuzaga kelishi mumkin. Bu to'siqlar, o'z navbatida, kommunikatsiyaning samarali bo'lishiga to'sqinlik qiladi.





Ba'zan, insonlar o'z fikrlarini ifoda etishda qo'rquv yoki ishonchsizlikdan aziyat chekishi mumkin. Shu bilan birga, madaniy, diniy yoki ijtimoiy farqlar ham muloqotda to'siqlar yaratishi mumkin. Muloqotda mavjud bo'lgan bu to'siqlarni yengish uchun, bir-birini tushunish va o'zaro hurmat asosida muloqot o'rnatish zarur.

### **5. Non-verbal (so'zsiz) muloqotning roli**

So'zlar nafaqat ma'lumot beradi, balki hissiyotlarni, kayfiyatlarni ham ifodalaydi. Biroq, so'zsiz muloqot, ya'ni tana tili, yuz ifodalari, qo'l harakatlari va jismoniy holatlar, muloqotning yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ko'p hollarda, so'zlarimizni to'ldiruvchi yoki ularga qarshi bo'ladigan non-verbal ifodalar, boshqalarga aniqroq ma'lumot berishga yordam beradi. Masalan, yuz ifodalarning ko'rsatishi yoki tana holatlari xafa yoki quvnoq ekanligimizni ta'kidlab, so'zlarni kuchaytiradi yoki ularning ta'sirini pasaytiradi.

### **6. Muloqotda muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatish**

Muloqot jarayonida muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatish uchun, birinchi navbatda, o'zaro hurmat, ochiqlik va samimiylik zarur. Shaxslararo aloqalar o'zgaruvchan va murakkab bo'lsa-da, muvaffaqiyatli muloqot qilishning asosiy prinsipi - bu boshqalarni tinglash, ularga hurmat ko'rsatish va ularning hissiyotlarini anglashdir. Boshqalar bilan samimiy, ochiq va ishonchli muloqot o'rnatish orqali ko'plab ijtimoiy va psixologik to'siqlarni yengish mumkin.

Shaxslararo muloqotning psixologik jihatlari va o'ziga xos jihatlarni muhokama qilish, muloqotning samaradorligini oshirishga va uning turli omillarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muloqot jarayonida yuzaga keladigan psixologik to'siqlar, emotsional holatlar, shaxsiy xususiyatlar va non-verbal ifodalarning ahamiyatini tushunish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va muloqotni yanada samarali qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu sohada bilimlarni kengaytirish, odamlar o'rtasidagi aloqalarni yanada kuchaytirishga imkon yaratadi.

### **Xulosa va takliflar:**

Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari insonlar o'rtasidagi aloqalarni shakllantiradigan va samaradorligini belgilovchi muhim omillardir. Muloqotning psixologik jihatlari, xususan, emotsional holat, empatiya, shaxsiy xususiyatlar, non-verbal ifodalar va muloqotdagi psixologik to'siqlar o'zaro tushunishni va ijtimoiy aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega. Muloqot samarali



bo'lishi uchun, har bir ishtirokchi o'z fikrini ochiq va to'g'ri ifodalashga, boshqalarni tinglashga va ularning hissiyotlariga hurmat bilan yondashishga intilishi kerak.

Bundan tashqari, muloqotda yuzaga keladigan psixologik to'siqlarni yengish va samimiy aloqalarni o'rnatish uchun, psixologik bilimlar va o'zaro tushunish muhim ahamiyatga ega. Har bir insonning shaxsiy xususiyatlari va emotsional holatlari muloqotni shakllantiradi, shu sababli samarali muloqotga erishish uchun ularni tushunish zarur.

### **Takliflar**

1. **Muloqotda empatiyani rivojlantirish:** Muloqotda empatiya rivojlanishi, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hurmat bilan yondashish muhimdir. Bu jarayonni rivojlantirish uchun treninglar, psixologik seminarlar va guruh ishlari tashkil etilishi mumkin.
2. **Non-verbal muloqotni o'rganish:** So'zlardan tashqari, tana tili, yuz ifodalari va boshqa jismoniy aloqalar ham muloqotning samaradorligini belgilaydi. Bu borada insonlarga non-verbal muloqotning psixologik ahamiyatini tushuntirish va unga e'tibor qaratish zarur.
3. **Psixologik to'siqlarni yengish:** Shaxslararo muloqotda yuzaga keladigan psixologik to'siqlarni yengish uchun, insonlarga o'z fikrlarini ochiq ifodalash va ijtimoiy xavotirlardan xalos bo'lishda yordam berish zarur. Muloqotda ishonchni oshirish va ochiqlikni ta'minlash uchun psixologik maslahatlar va qo'llanmalar yaratish foydali bo'ladi.
4. **Shaxsiy xususiyatlar va muloqot uslubini tushunish:** Har bir shaxsning muloqot uslubi va shaxsiy xususiyatlari o'ziga xosdir. Shaxsiy xususiyatlarni tushunish va muloqotning har bir ishtirokchisi uchun mos uslubni tanlash, aloqaning samaradorligini oshiradi.
5. **Muloqotda stressni boshqarish:** Muloqotda stressni boshqarish va psixologik jarayonlarni to'g'ri tushunish uchun psixologik mashqlar va stressni kamaytirish usullarini o'rgatish zarur. Bu, shuningdek, ishonchli va samarali muloqotga erishishga yordam beradi.
6. **Boshqalar bilan samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish:** Shaxslararo muloqot ko'nikmalarini o'stirish, o'quv kurslari va treninglar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu, ayniqsa, ish joylarida va ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli aloqalar o'rnatishda muhimdir.





Shaxslararo muloqotni psixologik jihatdan chuqurroq o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish, insonlar o‘rtasida yanada kuchli aloqalar o‘rnatishga, ijtimoiy va shaxsiy hayotda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mustafaev, A. (2005). Psixologiya asoslari, 72–80 betlar.
2. Xusanov, X. (2003). Odamlar o‘rtasidagi muloqot va psixologiya, 94–100 betlar.
3. Rahmonov, R. (2010). Ijtimoiy psixologiya, 56–60 betlar.
4. Kuziev, U. (2015). Muloqot psixologiyasi, 112–118 betlar.
5. Ibragimov, M. (2017). Pedagogik psixologiya, 85–90 betlar.



---

**Research Science and  
Innovation House**



## “Attention and Memory”

**Abduraimova Muxlisa**

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining  
Filologiya va tillarni o`qitish (ingliz tili)  
ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

**Turabova Sevara Kattaqulovna,**

falsafa fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrasida dotsenti  
E-mail: [turobova.sevara@mail.ru](mailto:turobova.sevara@mail.ru)  
[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)  
Tel.: +998996762269

**ABSTRACT:** Attention and memory are cognitive abilities of a person that complement each other. Attention is the ability to focus the mind on a specific object or process, and it manifests in voluntary, involuntary, and post-voluntary forms. Memory, on the other hand, is the process of receiving, storing, and retrieving information when needed. It is divided into short-term, long-term, and working memory types. To develop both abilities, it is important to use special exercises, engage in planned activities, and maintain a healthy lifestyle. Attention and memory are fundamental factors for effective thinking and learning processes.

**ANNOTATSIYA:** Diqqat va xotira insonning bir-birini to'ldiruvchi kognitiv qobiliyatlaridir. Diqqat – bu ongning ma'lum bir ob'ekt yoki jarayonga qaratish qobiliyatidir va u ixtiyoriy, ixtiyorsiz va post-ixtiyoriy shakllarda namoyon bo'ladi. Xotira esa, axborotni qabul qilish, saqlash va kerak bo'lganda uni qayta tiklash jarayonidir. U qisqa muddatli, uzoq muddatli va ishchi xotira turlariga bo'linadi. Har ikki qobiliyatni rivojlantirish uchun maxsus mashqlarni bajarish, rejalashtirilgan faoliyat bilan shug'ullanish va sog'lom turmush tarziga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Diqqat va xotira samarali fikrlash hamda o'qish jarayonlari uchun asosiy omillardir.





**Key words:** Types of attention ,voluntary attention ,by focus,by stability,span,shifting,distracton,meditation,planning,healthy lifestyle,importance of attention

**Kalit so‘zlar:** Diqqat turlari, ixtiyoriy diqqat, e'tiborning yo'naltirilishi, barqarorlik, hajm, ko'chirish, chalg'itish, meditatsiya, rejalashtirish, sog'lom turmush tarzi, diqqatning ahamiyati.

Attention is the ability to focus on a specific object or process while relegating other things to the background. Attention helps us efficiently perceive and process information. It serves as an essential foundation for human cognitive processes such as perception, memory, and thinking.

#### Types of Attention

Attention can be classified based on various factors and conditions:

#### 1. By origin:

Involuntary attention: Attention is drawn to a stimulus (e.g., a bright color or loud sound) without conscious effort. It is based on natural reflexes.

Voluntary attention: The mind is intentionally directed toward a specific object or task, such as studying or solving a problem.

Post-voluntary attention: Initially, attention is directed voluntarily, but later, it continues naturally due to interest, such as reading an engaging book.

#### 2. By focus:

Internal attention: Attention directed toward one's own thoughts and emotions.

External attention: Attention focused on events or objects in the external environment.

#### 3. By stability:

Sustained attention: The ability to focus on one thing for an extended period, such as conducting scientific research.

Distracted attention: Attention shifts to other things due to certain factors.

#### Characteristics of Attention

1. Concentration: Focusing attention on a single object or activity.

2. Stability: Maintaining focus on one object for a prolonged period.

3. Shifting: The ability to quickly switch attention from one object to another.

4. Span: The ability to focus on multiple things simultaneously.





5. Distraction: A shift of attention from the main object to other stimuli.

Ways to Develop Attention

To effectively improve and stabilize attention, the following methods can be used:

1. Exercises:

Concentration exercises: For instance, searching for specific words or letters in a familiar text.

Meditation: Breathing exercises and mindfulness practices enhance focus.

Observation practice: Try to study a particular object for an extended period.

2. Planning:

Plan daily tasks to avoid dividing attention between multiple things at once.

Use time management techniques like the "Pomodoro" method (25 minutes of focused work followed by a 5-minute break).

3. Minimizing distractions:

Reduce noise, technology use, and other disturbances in your environment.

Organize your workspace to eliminate clutter.

4. Healthy lifestyle:

Get adequate sleep (7–9 hours), as sleep restores attention.

Perform physical exercises and reduce stress through breathing techniques.

Consume foods rich in omega-3 fatty acids and vitamins.

5. Games and special techniques:

Board games, chess, and puzzles improve focus.

Visual and mental exercises activate the mind and enhance attention.

Importance of Attention

Well-developed attention:

Improves the efficiency of studying and working.

Reduces mistakes.

Minimizes stress and enhances self-control.

Memory is an essential part of human psychology that enables us to acquire, store, recall, and process information when needed. Memory serves as the primary tool for preserving personal experiences and knowledge.

Types of Memory

Memory can be classified according to several criteria:





1. By retention duration:

Short-term memory: Holds information for a few seconds or minutes. For example, remembering a phone number temporarily.

Long-term memory: Stores information for years, such as past events or childhood memories.

Working memory: Temporarily retains and processes information during active tasks, like reading and understanding a text.

2. By type of information:

Episodic memory: Stores life events and personal experiences, such as the first day of school.

Semantic memory: Retains knowledge and facts, like knowing the names of capital cities.

Procedural memory: Stores skills and sequences of actions, such as riding a bicycle.

3. By perception method:

Visual memory: Remembering things seen.

Auditory memory: Recalling sounds and music.

Kinesthetic memory: Related to movements and physical sensations.

How Memory Works

1. Encoding: Information is perceived and processed into a specific format for storage.

2. Storage: Encoded information is stored in short-term or long-term memory.

3. Retrieval: Information is recalled and used when needed.

Ways to Improve Memory

To strengthen and enhance memory, the following methods can be applied:

1. Exercises and training:

Memorizing new poems or texts.

Solving crosswords, logical puzzles, and math problems.

Learning new foreign languages.

2. Visualization techniques:





Remembering information through images and diagrams. For instance, using charts or graphs to simplify complex data.

3. Association techniques:

Connecting new information to prior knowledge or experiences. For example, linking a number with an event or a color.

4. Organization and planning:

Creating plans and setting daily goals to organize memory.

5. Healthy lifestyle:

Proper nutrition: Foods like nuts, fish, and broccoli enhance brain function.

Exercise: Physical activity improves blood circulation and boosts brain efficiency.

Adequate sleep: Essential for restoring memory and brain functions.

6. Cultivating interest:

Memory retains information better when it is deemed interesting or important. Therefore, focus on learning topics that excite you.

Interesting Facts

Events linked with strong emotions tend to be remembered longer.

The brain can handle only a limited amount of information at once (approximately 5–7 items).

Stress and anxiety negatively affect memory quality, making relaxation essential.

**References:**

1. Shodiev, A., & Kholmurodov, A. (2020). *Psixologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.
2. Jalilova, N. (2018). *Inson psixologiyasiga kirish*. Toshkent: Ma'naviyat va ma'rifat nashriyoti.
3. Baddeley, A. D. (2007). *Working Memory, Thought, and Action*. Oxford University Press.
4. Tulving, E. (2002). *Episodic Memory: From Mind to Brain*. In L. R. Squire & D. L. Schacter (Eds.), *Neuropsychology of Memory* (3rd ed.). The Guilford Press.

**Research Science and  
Innovation House**





## KREATIVLIK TUSHUNCHASI VA UNING SHAKILLANISHIDA MUHIM BO‘LGAN OMILLAR

Allamova Shirinoy Qadamboyevna

UrDU magistratura bosqichi

241-guruh talabasi

### ANNOTATSIYA


Ushbu maqolada kreativlik tushunchasi, ta’lim tizimini kreativ yondashuv asosida tashkil etish va uning ta’lim sifatiga ta’siri tahlil qilib o’tildi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish va e’tibor yildan yilga ortib bormoqda.

**Kalit so’zlar:** kreativlik, yangicha fikrlash, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta’lim

Kreativlik bu – chuqurroq qidirish, e’tiborliroq qarash, xatolarni to’g’rilash, mushuklar bilan suhbatlashish, chuqurlikka sho’ng’ish, devorlar ichra o’tish, quyoshni yoqish, qumdan qasrlar qurish, kelajakka sayohat qilishdir.

Y.Torrens

So’nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o’quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini boshqarish organlari har yili ta’lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e’tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o’quv dasturlari ishlab chiqiladi, yangi o’quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o’qituvchilarni kasbiy o’sish-lariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalar-da yutuqlarga erishish, olg’a intilishga bo’lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o’quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq o’quv yilining oxiriga kelib oliy ta’lim muassasalarida talabalarning fanlarni o’zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko’plab





talabalarining ta'lim olishga nisbatan qiziqishi pasaygan. Buning natijasida o'qituvchilar ham avvalgidek zavqu shavq bilan kasbiy faoliyatni tashkil etishni o'ylashmayapti.

Ta'lim tizimini boshqaruvchi organlar ta'lim olishga nisbatan xohish istagi bo'lmagan talabalar, bu kabi ta'lim oluvchilarni o'qitishni istamayotgan o'qituvchilar faoliyatini o'zgartirish borasida yangidan-yangi chora-tadbirlar belgilansa-da, ahvol o'zgarishsiz qolmoqda. Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o'ylab, rejalashti-rilib qo'yilishi talabalar uchun qiziq bo'lmayotgandir, balki ta'lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hech qanday stimuly bermayotgandir, rag'bat bildirmayotgandir. O'quv mashg'ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag'batlantirishda asosiy omil bo'la olar. O'quv mashg'ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlik sanaladi.

Mazkur masala bugungi kun ta'lim tizimining dolzarb muammo-laridan biri ekanligi va bu bo'yicha yangi darslik va o'quv adabiyot-larini yaratishga mamlakatimiz rahbari ham alohida urg'u berib, quyidagi fikrlarni bildirib o'tganlar: «Ta'lim sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, o'qituvchi va domlalar uchun metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro dasturlarga moslashtirish lozim. Bolalarning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ularga sermazmun va tushunarli darsliklar yaratish zarur». Ta'lim beruvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o'zlari ham o'quvchilarga fikrlashda ko'proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak.

Intelektni kreativlikdan yiroq qilish, shaxsdagi yaratuvchanlik, orginallik kabi sifatarni kreativlikka moslab qo'ymoqda. Kim birinchi bo'lib buyuk kashfiyotni, o'q -yoyni yaratgan, kim olovni o'zlashtirish mumkinligini o'ylab topgan? Intelektmi? Yoki kreativlikmi? agar kreativlik bo'lsa unda intellekt qayerga ketdi? Demak kreativlik tushunchasini targ'ib qilganimizda uni intellekt tushunchasidan farqlay olishimiz zarur.





Kreativlik – so‘zi inglizcha «createll» so‘zidan olingan bo‘lib, yaratish degan ma‘noni bildiradi. Kreativlik bu noodatiy fikr yuritish, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishdir. Kreativlik yangilikni ixtiro qilish, an‘naviylikdan voz kechib, odatiy fikr yuritishdan tashqariga chiqishni bildiradi.

D. Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Strenberg va boshqalar intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatning birligi deb bilishadi. Bu degani nafaqat ular birlikda, balki ijodkorlik intellektning hosilasidir.

Intelekt bu inson va hayvonlarning yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. V.Shterni, J.Piaje, D.veksler va boshqalar intellektni insonni yangi hayotiy sharoitga moslashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qarashgan. Ular o‘z tadqiqotlarida amerikalik minglab maktab o‘quvchilarini logityud metodi orqali tadqiq etishgan. Tadqiqot jarayonida dastlab ularni IQ aniqlab olindi. O‘quvchilarni IQ koeffitsientiga qarab guruhlarga ajratdilar va 30, 40, 50, 60 yil oralig‘ida kuzatishgan. Yillar davomida koeffitsenti yuqori bo‘lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarni ko‘rsatishgan. IQ koeffitsenti pastroq bo‘lgan sinaluvchilar ulardan farqli o‘laroq 30 marta kam yutuqlarga erishishgan. G.Ayzenk kreativlikni qobiliyatning o‘ziga xos ko‘rinishi deb hisoblagan. Kreativlik intellektning yuqori bo‘lishi bilan belgilanadi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni kreativ yondashuvga o‘rgatishda asosan, pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Pedagogik texnologiya -bu o‘qituvchining o‘qitish vositalari yordamida o‘quvchilarga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta‘sir ko‘rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya tushunchsi ta‘lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan keng ko‘lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqi ravishda, ishlov beriladigan material o‘quvchining aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo‘lib, ularga o‘qituvchi tomonidan ma‘lum maqsadlarga erishish yo‘lida turli xil ta‘sir o‘tkaziladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi uning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli,



samarali tashkil etishga yo'naltiradi. ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi.

Eng avvalo, o'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor berishi lozim. Buning uchun birinchi navbatda bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga o'rgatish kerak va albatta, bunday o'quv jarayonini tashkil qilishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirishkonsepsiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi ПФ 5847-sonli Farmoni.
- 2.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: Nasaf, 2000.
- 3.Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tabiiy asoslari. – T.: 2005.
- 4.Kaldibekova A.S., Xodjaev B.X. O'quvchilarning bilish faolligini oshirish Yo'llari – T.: TDPU, 2006.

**Research Science and  
Innovation House**





## ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИГА ХОС ИРОДАВИЙ СИФАТЛАР ВА УЛАРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ БЎЙИЧА ИЛМИЙ ҚАРАШЛАР

Искандаров Дониёр Тахирович, Хоразм вилоят ИИБ Урганч шаҳар ИИО ФМБ  
ХПГ профилактика катта инспектори, мустақил тадқиқотчи майор

**Аннотация:** Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги ПҚ-10-сон қарори билан амалга киритилган “Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми Кодекси” да Ички ишлар органларида касбий маданият қоидалари ва Ички ишлар органларида хизмат интизомига оид талаблар ҳамда Ички ишлар органларида бошлиқлар ва ходимларнинг ўзаро муносабатларига жуда катта эътибор қаратилган. Мазкур мақолада ички ишлар ходимларига энг зарур бўлган психологик ирода ва иродавий сифатларнинг намоён бўлиши тўғрисида фикрлар баён этилган.

**Калит сўзлар:** Махсус хизмат ходими, офицер, ирода, иродавий сифат, иродавий қобилият, жасорат, қатъиятлилиқ, бардошлилиқ, чидамлилиқ, виждонсизлиқ, ташаббуссизлиқ, мустақиллиқ, ташаббускорлиқ, мотивация, компетентлиқ, касбийахлоқий тайёргарлиқ.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чоратadbирлар тўғрисида” ги ПҚ- 10-сон қарорининг 1-илоvasи билан амалга киритилган “Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми Кодекси” да Ички ишлар органларида касбий маданият қоидалари ва Ички ишлар органларида хизмат интизомига оид талаблар ҳамда Ички ишлар органларида бошлиқлар ва ходимларнинг ўзаро муносабатларига жуда катта эътибор қаратилган. Бу эса, ўз навбатида ички ишлар ходимларига кучли ва барқарор иродавий сифатларга эга бўлишларини тақозо этади. Махсус хизмат ходимларида, офицерларда иродавий сифатларнинг психологик намоён бўлиши тўғрисида тадқиқотчи олимлар, мутахассис-психологлар жуда кўп манбаларда ўз фикрларини баён қилишган. Жумладан, АҚШнинг Мичиган университети тадқиқотчилар М.Р.Ванделлен ва Р.Н.Хойлеларга кўра, махсус ҳарбий хизмат фаолияти билан шуғулланувчи шахсларда иродавий сифатларнинг намоён



бўлиши куйидагича кўринишга эга: ирода - ҳаракати доимо саъй-ҳаракатларни қўллаш, қарор қабул қилиш ва уларни амалга ошириш билан боғлиқ жараёндр;

Ирода - ҳаракати пухта ўйланган режа билан тавсифланади. У ҳар қандай мураккаб вазиятларни таҳлил қила олиш ва чора кўришни тامينлайди. Бундан ташқари, тадқиқотчилар Х.М.Кеҳрнинг ёзишича, иродавий жараёнлар таъсирида инсон қийинчиликларни енгиш шароитида ўз ҳаракатларини фаоллаштириш ва уларнинг муваффақиятли яқунланишига эришиш учун ҳаракат қилиши мумкин. Айниқса, ички ишлар органлари тизимида хизмат қилувчи ходимларнинг мураккаб касбий фаолиятини амалга ошириш жараёнида юзага келиши мумкин бўлган мураккаб вазиятларни тўғри баҳолаши ва муносабат билдиришида катта аҳамият касб этади. Рус олими А.В.Биков ўзининг “Иродавий сифатларни бошқариш генезиси” асарида ёзишича, иродавий ҳаракатларни бажариш орқали, шахс фаолият жараёнида ўзида уни шахс сифатида тавсифловчи ҳаёт ва меҳнат учун катта аҳамиятга эга бўлган иродавий фазилатларни ривожлантиради. Баъзи хусусиятлар шахсни фаоллаштиради, бу мия ярим шарларида кўзғалиш жараёнларининг устунлиги билан боғлиқ, яна бошқа фазилатлар эса исталмаган ақлий жараёнлар ва ҳаракатларни бошқариш, кечиктириш, бостиришда намоён бўлади. Бунда ички ишлар ходимларининг касбий фаолияти билан боғлиқ фазилатларга қатъиятлик, жасорат, чидамлик, мустақилликни киритишимиз мумкин. АҚШнинг Флорида университети тадқиқотчилари К.В.Хегланд ва Д.С.Болсернинг таъкидлашича, шахс фаолиятининг ўзига хослиги унинг иродавий сифатларида мужассамланади. Муаллифларга кўра, иродавий фазилатлар - бу шахс томонидан эришилган хулқ-атворнинг онгли равишда ўз-ўзини бошқариш даражасини ва унинг ўзи устидан ҳокимиятини тасдиқловчи, муайян вазиятдан мустақил, нисбатан барқарор руҳий шаклланишни ифодалайди. Тадқиқотчи М.Хелленд иродавий сифатларни нафақат ижтимоий омиллар билан шаклланувчи жараён балки физиологик қонуниятларга таянувчи ҳодиса сифатида таъкидлайди. Унга кўра, инсоннинг иродавий фазилатлари туғма ва орттирилган қотишма, инсоннинг мавжуд имкониятларининг фенотипик хусусияти сифатида қаралади. Иродавий сифатлар ироданинг тарбия жараёнида шаклланадиган ахлоқий компонентларини ва нерв системасининг типологик хусусиятлари билан чамбарчас боғлиқ бўлган ирсий компонентларини ўзида мужассамлаштиради. Масалан, кўркув, чарчоққа узоқ вақт бардош бера олмаслик, тез қарор қабул қилиш кўп жиҳатдан инсоннинг туғма хусусиятларига



(асаб тизимининг кучли ва заифлиги, унинг лабиллиги) боғлиқ. Демак, иродавий сифатларни шакллантириш, тарбиялашда ички ишлар ходимларидан мослашувчанлик, индивидуал ёндашув, сабр-тоқат, сезгирлик талаб этилади. АҚШнинг Акрон университети профессори Ж.М.Диефендорф иродавий сифатларни индивидларга хос эркинликнинг индивидуал хусусиятлари сифатида эътироф этади. Муаллиф, ижобий фазилатларга: қатъиятлилиқ, бардошлилик, чидамлилиқни, шахс иродасининг заифлигини тавсифловчи фазилатлар қаторига: виждонсизлик, ташаббуссизлик, ўзини тута олмаслик, тортинчоқлик, ўжарлик каби бошқа сифатларни киритади. Л.В.Шабанов офицерларни тайёрлашда биринчи навбатда сабр-тоқат, чидамлилиқ ва жасорат каби кучли (бирламчи) иродавий фазилатларни таркиб топтиришга эътибор қаратади. Муаллиф уларнинг функционал кўринишларини иродавий ҳаракат шаклига эга бўлган онгнинг бир томонлама тартибга солувчи ҳаракатлари сифатида таърифлайди. Италиянинг Верона университети профессори П.Магнанонинг фикрича, бирламчи иродавий фазилат сифатида жасорат - хавф туғилганда, (хаёт, соғлиқ ёки обрў) ақлий функциялар ишлашини барқарорлигини сақлаб қолиш ва фаолият сифатини пасайтирмаслик қобилиятидир. Бошқача қилиб айтганда, жасорат кўрқувга қарши туриш ва маълум бир мақсад учун асосли таваккал қилиш қобилиятидир. Айнан ички ишлар органларида хизмат қилувчи ходимларнинг касбий фаолиятида юзга келиши мумкин бўлган жуда мураккаб, ҳаёт учун хавфли, таҳликали вазиятларда жасорат кўрсата олиши, кўрқувни енгиши жуда муҳимдир. С.М.Левинга айтишича, иродавий ҳаракатлар маълум тузилиш ва мазмунга эга бўлган ихтиёрий ҳаракатларда амалга оширилади. Ихтиёрий ҳаракатлар оддий ёки мураккаб бўлиши мумкин. Оддий ихтиёрий ҳаракатда ҳаракат қилиш истаги деярли автоматик равишда ҳаракатнинг ўзига ўтади. Мураккаб ихтиёрий ҳаракатда ҳаракат олдидан унинг оқибатларини ҳисобга олиш, мотивларни тушуниш, қарор қабул қилиш, уни амалга ошириш нияти, амалга ошириш режасини тузиш киради. Хулоса қиладиган бўлсак, Ички ишлар ходимларининг бошқа хусусиятлари каби, иродавий сифатлар ҳам фаолиятда тез ривожланади, ирода тарбияси психологик жиҳатдан бошқариладиган жараёндир ҳамда иродавий фазилатларни шакллантириш биринчи навбатда ходимларнинг эмоционал соҳаси, мотивацион соҳаси, индивидуал, физиологик ва психологик хусусиятлари билан бевосита боғлиқдир. Иродавий фазилатларни тарбиялашда ходимларнинг шахсий намунаси ва



жамоанинг талаблари муҳим рол ўйнайди ва хизмат ва раҳбарий ҳужжатлари талабларининг тўлиқ бажарилишини таъминлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 20 январдаги “Ички ишлар органларини халқчил профессионал тузилмага айлантириш ва аҳоли билан янада яқин ҳамкорликда ишлашга йўналтириш бўйича қўшимча чоратadbирлар тўғрисида” ги ПҚ- 10-сон қарори
2. VanDellen M.R., Hoyle R. H. Regulatory Accessibility and Social Influences on State SelfControl // Personality and Social Psychology Bulletin. 2010. Vol. 36. P. – 251-263.
3. Hudson N. W., Fraley R. C. Volitional personality change //Personality development across the lifespan. – Academic Press, 2017. – P. 555-571.
4. Kehr H. M. Implicit/explicit motive discrepancies and volitional depletion among managers //Personality and Social Psychology Bulletin. – 2004. – Т. 30. – №. 3. – С. 315-327.1
5. Быков А.В. Генезис волевой регуляции.- М., Изд-во «Восток Сервис», - 2007. – С. 72.
6. Hegland K. W., Bolser D. C., Davenport P. W. Volitional control of reflex cough //Journal of Applied Physiology. – 2012. – Т. 113. – №. 1. – P. 39-46.
7. Hallett M. Volitional control of movement: the physiology of free will //Clinical Neurophysiology. – 2007. – Т. 118. – №. 6. – P. 1179-1192.
8. Diefendorff J. M., Lord R. G. The volitional and strategic effects of planning on task performance and goal commitment //Human Performance. – 2003. – Т. 16. – №. 4. – С. 365- 387.
9. Magnano P. et al. Courage as a potential mediator between personality and coping //Personality and individual differences. – 2017. – Т. 111. – P. 13-18.
10. Левин С. М. Свобода воли, наука и причины поведения //Epistemology & Philosophy of Science. – 2018. – Т. 55. – №. 2. – С. 153-164.

RESEARCH SCIENCE and  
Innovation House




**MUNDARIJA**

1.	<b>OLMAZORNI TOMCHILAB SUG‘ORISH</b> Qodirov Abdurauf Xasanovich	5-8
2.	<b>FAVQULODDA VAZIYATLAR XODIMLARIGA PSIXOLOGIK YORDAM KO‘RSATISH</b> Oblokulova Firuza Kudratullayevna	9-13
3.	<b>Muloqot madaniyatini shakllantirish va uni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari</b> Azizova Gulnoza Dadanazar qizi	14-19
4.	<b>XORAZM VILOYATIDA ICHIMLIK SUVI MUAMMOLARI</b> Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna Saparbayev Ulug‘bek Tursunboyevich	20-23
5.	<b>BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING LUG‘AT BOYLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN MASHQLAR</b> Zokirov Javohir G‘aybullo o‘g‘li	24-28
6.	<b>Turizmga oid til birliklarining Ingliz va O‘zbek tillaridagi qiyosiy tahlili: lingvistik va madaniy o‘ziga xosliklar</b> Maxmudova Nozimaxon Zoxidjon qizi	29-32
7.	<b>O‘zbek va nemis tillarida qo‘rquv konseptini ifodalovchi lisoniy birliklarning qiyosiy tadqiqi</b> Sapayeva Rayhon Bobojonovna Qadamova Ko`xinur Anvar qizi	33-36
8.	<b>Shaxslararo muloqotning asosiy psixologik xususiyatlari va o‘ziga xos jihatlari</b> Quranboyeva Ruxsora Muzaffar qizi	37-44
9.	<b>“Attention and Memory”</b> Abduraimova Muxlisa Turabova Sevara Kattaqulovna	45-49



10.	<b>KREATIVLIK TUSHUNCHASI VA UNING SHAKILLANISHIDA MUHIM BO'LGAN OMILLAR</b> Allamova Shirinoy Qadamboyevna	50-53
11.	<b>ИЧКИ ИШЛАР ХОДИМЛАРИГА ХОС ПРОДАВИЙ СИФАТЛАР ВА УЛАРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ БЎЙИЧА ИЛМИЙ ҚАРАШЛАР</b> Искандаров Дониёр Тахирович	54-57
12.	<b>MUNDARIJA</b>	58-59



**Research Science and  
Innovation House**

